

IKKI TILLI O'QUV LUGATLARNING TARKIBIY QISMLARI

Nashirova Shaxnoza Buriyevna
Qarshi xalqaro universiteti katta o'qituvchisi

Xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talabning oshishi ikki tilli inglizcha-o'zbekcha va o'zbekcha-inglizcha yangi avlod o'quv lug'atlari megaqurilmasini an'anaviy va zamonaviy leksikografik konsepsiyalar hamda pedagogik leksikografiyaning innovatsion didaktik tamoyillari asosida takomillashtirishni taqozo qilmoqda. O'zbek tilida inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha ikki tilli lug'atlar ko'plab tuzilgan, ammo hozirga qadar ikki tilli ko'p ma'noli so'zlar o'quv lug'atlari yaratilmagan. Shu sababli bu tipdagi lug'atlarning megatuzilmasi – tayanch qismlari, ularning lug'at tarkibida joylashuvi masalalarini ingliz va o'zbek tillari negizida tuzilgan ikki tilli lug'atlar va boshqa tillarda tuzilgan ko'p ma'noli so'zlarning ikki tilli lug'atlari misolida ko'rib o'tamiz.

Zamonaviy ikki tilli lug'atlar megatuzilishi tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'p ma'noli so'zlar o'quv lug'ati megaqurilmasi ham barcha lug'atlarga xos bo'lgan tarkibiy qismlar bilan birga lug'at xususiyatidan kelib chiqib kiritilgan qismlar, ya'ni ko'p ma'noli so'zlar lug'atni xarakterlaydigan maxsus qismlarga ham ega. Ushbu qismlar turli tillarda turlicha terminlar bilan yuritiladi. Ularning aksariyati bir tildan ikkinchi tilga kalka asosida yasalgan analogi yoki muqobili bilan sinonimlik hosil qiladi va parallel ishlatiladi. Masalan, **shartli qisqartmalar ro'yxati** – *список сокращений, symbols, contractions, list of abbreviations*; **kirish maqola** – *muqaddima, so'zboshi, tuzuvchilardan, предисловие, введение, вступительная статья, introduction, foreword, front matter, preface*; **lug'at korpusi** – *so'zlik, корпус словаря, словник, corpus, the body of the dictionary, middle matter, body matter, names*; **ilova** – *приложения, supplements, back matter*; **o'quv-uslubiy qurilma** – *tushuntirish qismi, lug'at bilan ishlash bo'yicha ko'rsatma, научно-популярная статья, учебно-методический комплекс, about this book; “Lug'atdan qanday foydalaniladi?”, “Как пользоваться словарем?”, “User's manual”, “Key to dictionary entries?”, “How to use the dictionary?” kabi.*

Shuni ham aytib o'tish kerakki, lug'atga doir ilmiy-ommabop materiallar, grammatik qoidalar, bibliografiya kabi bir qator komponentlarning lug'at megaqurilmasida joylashuv o'rni qat'iy emas. Ushbu ma'lumotlar turli lug'atlarda kirish qismida ham, o'quv metodik kompleks tarkibida ham, ilovada ham joylashishi mumkin.

Har qanday zamonaviy adabiyot – badiiy, ilmiy, publitsistik asar kabi lug'at ham birinchi navbatda tijoriy nashr bo'lib, u lug'at mualliflari uchun ham, nashriyotlar uchun ham moddiy manfaat keltira olishi, unga sarflangan xarajatlarni qoplashi lozim. Shu bois lug'at nashri bilan shug'ullanuvchilar xaridorgir lug'at yaratishni o'zlariga ustuvor

vazifalardan biri qilib qo'yishadi. Hatto lug'atning muqovasi, nomi, formati, dizayni ham chetda qolmaydi. M.S.Kovaleva ishni lug'atni nomlashdan boshlash kerakligiga e'tibor qaratadi. "Ko'pchilik leksikografik manbalarning nomi tarkibida lug'at *dictionary* so'zi uchramaydi. Uni bir qator boshqa so'zlar bilan almashtirish mumkin, masalan, kitob *book*, qo'llanma *guide* kabi. Masalan, "The complete book of baby names" (Bolalarga qo'yiladigan ismlarning to'liq kitobi) yoki bu kitobda muayyan ismlar borligini bildiradigan so'zlarni qo'shish: "Hawaiian names – english names" (Gavayi ismlari – inglizcha ismlar), "American given names: their origin & history in the context of the english language" (Amerikacha ismlar: ingliz tili kontekstida ularning kelib chiqishi va tarixi) kabi"¹. Demak, lug'at muqovasi va nomi ham megasistema tarkibiga kirishi lozim.

Kirish qismida lug'atning o'ziga xos xususiyatlari – lug'at turi, maqsadi, metodik yo'nalishi, tuzilishi, lug'at materialining xususiyatlari, so'zlikni tanlash va taqdim qilish usuli, hajmi xususidagi ma'lumotlar qamrab olinadi. Ingliz tili negizida tuzilgan ayrim ikki tilli lug'atlarda esa kirishning ikki ko'rinishi farqlanadi. **Birinchisi**, lug'at haqida qisqacha ma'lumot – *dedication*, muallif haqida ma'lumot – *about the author*, mundarija – *contents*, shartli qisqartmalar ro'yxatidan iborat titil; **ikkinchisi**, kirish maqola. Kirish maqola ayrim lug'atlarda *so'zboshi*, *muqaddima* yoki *tuzuvchilardan*, *mualliflardan* ko'rinishidagi qism bo'lib, lug'at tuzishning umumiy tamoyillari va undan foydalanish bo'yicha aniq ko'rsatmalarni qamrab oladi². Masalan, Sh.Bo'tayevning "Inglizcha-o'zbekcha lug'ati" megatarkibidan quyidagi qismlar o'rin olgan:

1. Lug'atning muqova jildi va nomlanishi.
2. Lug'at annotatsiyasi.
3. "Lug'atning tuzilishi va undan foydalanish tartibi" deb nomlangan o'quv metodik qurilma:
 - 3.1. Lug'atning tuzilishi.
 - 3.2. Lug'atda so'zlarning ma'no xarakteristikasi.
 - 3.3. So'zlarning grammatik xarakteristikasi.
4. Shartli qisqartmalar va qo'shimcha ma'lumotlar.
 - 4.1. Inglizcha qisqartmalar ro'yxati.
 - 4.2. O'zbekcha qisqartmalar ro'yxati.
 - 4.3. O'zbek va ingliz alifbosi.
5. Lug'at korpusi.
6. Ilovalar:
 - 6.1. Noto'g'ri fe'llar ro'yxati.

¹ Ковалева М.С. Особенности состава и организации мегаструктуры английского антропонимического словаря // Фундаментальные исследования. – 2014. – № 12-2. – С. 425-428; URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=36246> (дата обращения: 13.08.2022).

² Быстрова Е.А. Словарь как компонент единого учебного комплекса для национальной школы. / Теория и практика составления учебных словарей. -Москва: Ротапринт, 1978, С.3-15.

6.2. Geografik nomlar ro'yxati³.

Mazkur lug'atning "O'qituvchi" nashriyotida "Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at" nomi bilan chop etilgan 80 000 so'zlikka ega bo'lgan nashri korpusga o'zbekcha-inglizcha so'zlik ham kiritilgani va nafaqat struktural jihatdan, balki sifat jihatidan ham birmuncha takomillashgani bilan ajralib turadi. Uning megatarkibidan quyidagi komponentlar joy olgan:

1. Lug'atning muqova jildi va nomlanishi.

2. Lug'at annotatsiyasi.

3. Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'atga muqaddima (Foreword to the English-Uzbek, Uzbek-English dictionary)

4. "Lug'atning tuzilishi va undan foydalanish tartibi" deb nomlangan o'quv metodik qurilma:

4.1. Lug'atning tuzilishi.

4.2. Lug'atda so'zlarning ma'no xarakteristikasi.

4.3. So'z ma'nolarining joylashish tartibi.

4.4. Lug'atda frazeologiya.

4.5. So'zlarning grammatik xarakteristikasi.

4.6. Talaffuz va urg'u.

5. Shartli qisqartmalar va qo'shimcha ma'lumotlar.

5.1. Inglizcha qisqartmalar ro'yxati.

5.2. O'zbekcha qisqartmalar ro'yxati.

5.3. O'zbek va ingliz alifbosi.

6. Lug'at korpusi.

6.1. Inglizcha-o'zbekcha so'zlik.

6.2. O'zbekcha-inglizcha so'zlik.

7. Ilovalar:

7.1. Noto'g'ri fe'llar ro'yxati (The list of irregular verbs)

7.2. Geografik nomlar ro'yxati (The list of geographic names)

7.3. Qisqartma so'zlar ro'yxati (Abbreviations)⁴.

Ko'rinib turibdiki, ushbu nashr kompozitsiyasi oldingisiga qaraganda ancha takomillashgan. Lug'at Amerika Qo'shma Shtatlarining O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda chop etilganligi bois AQShning O'zbekistondagi elchisi Jorj A.Krol tomonidan "Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'atga muqaddima" nomi bilan lug'atga xarakteristika beruvchi qism kiritilgan. Lug'atning o'quv metodik ko'rsatma qismi ham ancha takomillashgan. Avvalgi nashrdan farqlanib, bu qism tarkibiga lug'atning tuzilishi, lug'atda so'zlarning ma'no xarakteristikasi, so'zlarning grammatik

³ Butayev Sh. English-Uzbek dictionary: 50 000 words and expressions. Inglizcha-o'zbekcha lug'at: 50 000 so'z va ibora. – Toshkent: „BAYOZ“ nashriyoti, 2013. – B.736.

⁴ Bo'tayev Sh. Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at (80000 so'z). –Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B.880.

xarakteristikasi bilan birga leksikografik semantizatsiya bilan bog‘liq jarayonlar, xususan, frazeologizmlarning leksikografik talqini (lug‘atda frazeologiya), o‘zbek va ingliz tillarining fonetik imkoniyalari, inglizcha talaffuz qoidalari – transkripsiyaga oid ma’lumotlar (talaffuz va urg‘u), muhimi, ko‘p ma’noli so‘z ma’nolarining lug‘at maqolada joylashish tartibi haqidagi qism – “so‘z ma’nolarining joylashish tartibi”ning joy olishi diqqatga molik: “so‘zlarning eng asosiy ma’nosi oldin, ikkinchi darajali ma’nolari keyin berilgan:

Finery [‘fain(ə)ri] *n* 1) yaxshi kiyinish; 2) qimmatbaho zeb-ziynatlar”⁵. Ushbu o‘rinda “eng asosiy ma’no” deganda atash semasi – bosh (denotativ) ma’no, “ikkinchi darajali ma’nolar” deganda ifoda va vazifa semalari – konnotativ (kontekstual) ma’nolar nazarda tutilgan.

Aksariyat tadqiqotchilar, jumladan, M.S.Kovaleva lug‘at strukturasi majburiy va ixtiyoriy komponentlarni ajratadi. Lug‘at megaqurilmasining *majburiy tarkibiy qismlariga lug‘atning muqova jildi* (суперобложка, dust jacket) va nomi, mundarija, so‘zboshi yoki kirish maqolasi va so‘zlikni, *ixtiyoriy komponentlarga lug‘at haqida ma’lumot* (annotatsiya), muallif haqida ma’lumot, shartli qisqartmalar ro‘yxati, tanishtiruvchi kirish maqola, lug‘atdan foydalanish to‘g‘risidagi maqola, lingvomadaniy ma’lumotlar va bibliografiyalarni kiritadi⁶. Jumladan, P.P.Litvinovning mashhur “Inglizcha-ruscha ko‘p ma’noli so‘zlar lug‘ati” (“English-Russian Polysemantic Words Dictionary”) megaqurishi quyidagi qismlardan tarkib topadi:

1. Lug‘atning muqova jildi va nomlanishi.
2. Lug‘at annotatsiyasi (kelishuv varag‘i).
3. Lug‘atdan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma.
4. Shartli qisqartmalar (inglizcha va ruscha qisqarmalar ro‘yxati).
5. Korpus – inglizcha ko‘p ma’noli so‘zlar ro‘yxatiga asoslangan so‘zlik.
6. Ilovalar (lingvomadaniy ma’lumotlar, noto‘g‘ri fe’llar ro‘yxati, geografik nomlar ro‘yxati, qisqartma so‘zlar ro‘yxati)⁷.

Ma’lumki, umumiy lug‘atlardan farqlanib o‘quv lug‘atlarida lug‘at ustida ishlashga doir metodik tavsiyalar alohida komponent – o‘quv-uslubiy qurilmada aks etadi. O‘quv-metodik kompleks lug‘atdan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma bo‘lib, ilmiy-ommabop, shuningdek, didaktik xarakterda bo‘ladi. Shu sababli bu qism ko‘pincha *tushuntirish qismi*, *научно-популярная статья*, *about this book* nomli yoki “Lug‘atdan qanday foydalaniladi?”, “User’s manual”, “Key to dictionary entries?”,

⁵Bo‘tayeov Sh. Inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha lug‘at (80000 so‘z). –Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. –B.5

⁶Ковалева М.С. Особенности состава и организации мегаструктуры английского антропонимического словаря // Фундаментальные исследования. – 2014. – № 12-2. – С. 425-428; URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=36246> (дата обращения: 13.08.2022).

⁷Литвинов П.П. *Англо-русский словарь многозначных слов / English-Russian Polysemantic Words Dictionary*. –Москва: БАКО, 2005. –С.336.

“How to use the dictionary?” kabi sarlavhalar bilan beriladi⁸. O‘quv lug‘atining boshqa ko‘rinishlari o‘quv-uslubiy qurilmasidan farqlanib, ko‘p ma’noli so‘zlarning ikki tilli lug‘atlarda berilishiga bag‘ishlangan o‘quv lug‘atlarning ushbu metodik qismida asosiy e’tibor ko‘proq ko‘p ma’noli so‘z va iboralarning ma’nolari talqini, xususan, ko‘chma ma’nolarning muhimligiga ko‘ra lug‘at mikroqurilmasi tarkibidan joy olishi, bir tildagi polisemantik so‘z ikkinchi tilda kontekstual ma’nolarga ega bo‘lmasligi mumkinligi va boshqa jihatlarga qaratiladi.

Qisqartmalar ro‘yxati lug‘at uchun qabul qilingan shartli leksikografik qisqartma va pometalardan tashkil topadi. Pometalar ingliz yoki o‘zbek tilida qisqartirilgan yoki shartli shaklda berilgan so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy lug‘atlarda pometalar nafaqat muayyan so‘z yoki qisqartmalar, balki kursivli, qora rangli yozuv shakllari bilan ham beriladi.

Lug‘at korpusi lug‘at makroqurilmasini tashkil etib, lug‘at maqolalar to‘plami – so‘zlikni qamrab oladi. Ikki tilli lug‘atlarda ilovalar ham muhim qism hisoblanib, lug‘at bilan ishlash samaradorligini oshirishga ko‘mak beruvchi grammatik qoidalar, qabul qilingan shartli leksikografik pometalar sharhi, asosiy va yordamchi ko‘rsatkichlar va boshqalardan tashkil topadi.

So‘nggi yillarda tuzilgan zamonaviy ikki tilli lug‘atlarda lug‘at uchun tanlangan, qabul qilingan **transkripsion belgilar sharhi** – keys to the transcriptionra ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Ma’lumki, transkripsion belgilarning turli shakllari mavjud bo‘lib, zamonaviy leksikografiyada xalqaro va milliy transkripsion belgilar farqlanadi. Milliy transkripsion belgilar dialektik xarakterga ham ega bo‘ladi. Har bir til o‘ziga xos transkripsion belgilardan foydalanish bilan birga xalqaro tan olingan belgilarga murojaat qiladi. Ingliz tili negizida tuzilgan ikki tilli inglizcha-o‘zbekcha lug‘atlarda ingliz transkripsion tizimidan foydalaniladi.

Umuman olganda, inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha inglizcha lug‘atlar megaqurilmasi ichki tizimlar – makro-, mikro-, multi-, medioqurilmalarning o‘zaro iyerarxik munosabatiga asoslanadi. Mukammal tarkibga asoslangan megatizim nafaqat lug‘atchi ishini yengillashtiradi, balki foydalanuvchining kommunikatsiya jarayonida ingliz va o‘zbek tillariga mansub ko‘p ma’noli so‘zlarning ma’no nozikliklaridan o‘rinli, to‘g‘ri foydalanish bilan bog‘liq muloqot madaniyati hamda lingvistik kompetentligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

⁸ **Qarang:** Карпова О. М. Английская лексикография: учеб. пособие для студентов филологических факультетов высших учебных заведений / О. М. Карпова. - М.: Академия, 2010. –С.176; Ступин Л.П. Лексикография английского языка: учебное пособие. М.: Высшая школа, 1985. –С.185.